

RHUS GLABRA O’SIMLIGIDAN AJRATIB OLINGAN POLIFENOL EKSTRAKTINING KARDIOHIMOYA FAOLYATI

Karimjonov Hayotbek Mirodilbek o’g’li

Andijon davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti
hayotbek656@gmail.com

Gayibov Ulug’bek Gapparjonovich

O’zR FA Akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti
katta ilmiy xodimi(PhD)


Annotatsiya: Yurak-qon tomir kasalliklari global miqyosda inson hayoti va sog’lig’ida kasallanish va o’limning asosiy sabablari hisoblanadi. Ishemik holatlardan keyin funktsional tiklanishni yaxshilash va infarkt darajasini pasaytirishga katta sa’y-harakatlar berildi. Bunday holda, tabiiy mahsulotlar, ayniqsa o’simliklarning ikkilamchi metabolitlari yurakni himoya qiluvchi ta’sirga ega yangi dori vositalarini aniqlash muhim vazifadur [Atanasov]

Kalit so’zlar: Rhus glabra, PS-5, Kardioprotektor

Material va metodlar: Mitoxondriyalarning izolyatsiyasi.

Schneider [Schneider va boshq., 1948] bo’yicha differensial santrifujlash orqali kalamush jigaridan ajratilgan mitoxondriya. Yadrolar va hujayra bo’laklari santrifujda 600 g 7 daqiqa davomida santrifuj qilish yo’li bilan olib tashlandi. Mitoxondriyalar $-4-0^{\circ}\text{C}$ haroratda 15 daqiqa davomida 10000 g da granulalanadi. Mitoxondriyal pellet ikki marta EDTAsiz izolyatsiyalash muhitida yuvildi. Mitoxondriyal oqsilning tarkibi Peterson modifikatsiyasida Lowry usuli bilan aniqlandi [Peterson, 1977].

Olingan natijalar va ularning muhokamasi: Mitohondriyalarda ATF ga bog’liq kaliy kanali ($\text{mitoK}_{\text{ATF}}$) matritsa hajmini boshqaradigan va membrana potentsialini shakllantirishda muhim rol o’ynaydigan muhim mitoxondriyal membrana kanallaridan biridir. Shunga asoslanib, keyingi ishda PS-5 ning mitohondriyalardagi ATF ga bog’liq Kaliy kanal faoliyatiga ta’siri o’rganildi. Eksperimental ma’lumotlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, 5mkm konsentratsiyada PS-5 ushbu kanalning ozgina faollashtiruvchi ta’sirini ko’rsatadi va PS-5 konsentratsiyasi 10 va 20 mkl ga ko’tarilganda $\text{mitoK}_{\text{ATF}}$ faolligi keskin 2-2,5 marta ortadi.



1.jadval. PS-5 ning mitoK_{ATP} kanalining faollashuviga ta'siri. Kuluka muhiti (mM): KCl- 125, Hepes-10, suksinat-5, MgCl₂-1, KHPO₄ -2,5, KH₂PO₄-2,5, rotenon-0,005 va oligomisin-0,001. pH- 7,4. (*** - R<0,001; n=3)

Xulosa: Joriy tajribalar Rhus Glabra polifenolik fraktsiyasi ekstrakti in vitro va in vivo modellarda kardioprotektiv va antioksidant ta'sirga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Rhus Glabra Markaziy Osiyodagi eng mashhur dorivor o'simliklardan biri bo'lib, turli xil biologik faollik va farmatsevtik funksiyalarga, jumladan, yuqori antioksidant ta'sirga ega

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roginsky, V.A. (2002) *Fenolnye antioksidanty: reakcionnaya sposobnost i effektivnost* [Phenolnye antioxidants: reaction capacity and effectiveness]. Moscow: Nauka.

2. Yokwa T.; Chen C. P.; Dong E., Tanaka T.; Nonaka G.-I.; Nishioka I. Study on the Inhibitory Effect of Tannins and Flavonoids against the 1,1-Diphenyl-2-picrylhydrazyl Radical. // *Biochem.l Pharmacol.* 1998, V.56, P.213–222.

3.Т.Ф. Арипов, У.Г. Гайибов, С.Н. Гайибова, А.А. Абдуллаев, Д.Ш. Абдуазимова, Н.Ш. Бердиев, Зиявитдинов Ж.Ф., Ю.И. Ощепкова*, Ш.И. Салихов
АНТИРАДИКАЛЬНАЯ И АНТИОКСИДАНТНАЯ АКТИВНОСТЬ ПРЕПАРАТА
РУТАН ИЗ СУМАХА ДУБИЛЬНОГО *RHUS CORIARIA L.* // *Журнал теоретической и клинической медицины - 2023 - № 4 – с 164-170*